



RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA YOSH KADRLARNI ISH BILAN TA'MINLASH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI

PhD Kayumova Mexribonu Sheraliyevna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0002-1966-9287

kayumovamexribonu@gmail.com

Raximov Ramzbek Rasuljon o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

rahimovramzbek3@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekistonda yosh kadrlarni ish bilan ta'minlash masalasi tahlil qilinadi. Yoshlarning bandligi iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri bo'lib, bu jarayonda yuzaga kelayotgan muammolar va ularni hal qilish yo'llari yoritilgan. Ta'lim tizimi va mehnat bozorining o'zaro moslashmaganligi natijasida yoshlar uchun malakaga mos ish o'rinlarini topish qiyinchilik tug'dirmoqda. 2023-yil davomida korxonalar, professiona ta'lim muassasalari va qishloq xo'jaligi sohasiga jalb etish orqali yoshlarning bandligini oshirish rejalashtirilgan. Raqamli iqtisodiyot, frilanserlik va masofadan ishlash kabi yo'nalishlarda imkoniyatlarni kengaytirish yoshlarning mehnat bozoriga integratsiyasini yaxshilashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: yoshlar, mehnat bozori, bandlik, kadrlar tayyorlash strategiyasi.

РАЗВИТИЕ ПРОБЛЕМ И РЕШЕНИЙ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЗАНЯТОСТИ МОЛОДЫХ КАДРОВ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ СРЕДЫ

Каюмова Мехрибону Шералиевна

Ташкентский государственный

экономический университет

Рахимов Рамзбек Расулжонович

Ташкентский государственный

экономический университет

Аннотация. В данной статье рассматриваются проблемы обеспечения занятости молодых кадров в Узбекистане. Занятость молодежи является важным фактором экономического развития, и в статье анализируются возникающие проблемы и предлагаются пути их решения. Отсутствие согласованности между системой образования и требованиями рынка труда затрудняет трудоустройство молодых специалистов в соответствии с их квалификацией. В 2023 году планируется увеличить занятость молодежи за счет привлечения их к работе в компаниях, профессионально-технических колледжах и в сельском хозяйстве. Расширение возможностей в таких направлениях, как цифровая экономика, фриланс и удаленная работа, способствует интеграции молодежи в рынок труда.

Ключевые слова: молодежь, рынок труда, занятость, стратегия подготовки кадров.

ISSUES AND SOLUTIONS FOR THE EMPLOYMENT OF YOUNG PROFESSIONALS IN THE DIGITAL EDUCATION ENVIRONMENT

*PhD Kayumova Mexribonu Sheraliyevna
Tashkent State University of Economics
Rahimov Ramzbek Rasuljon o'g'li
Tashkent State University of Economics*

Abstract. *This article examines the challenges related to the employment of young professionals in Uzbekistan. Youth employment is a crucial factor in economic development, and the article analyzes the emerging issues and proposes solutions. The lack of alignment between the education system and labor market demands makes it difficult for young specialists to find jobs that match their qualifications. In 2023, efforts are planned to increase youth employment by engaging them in companies, vocational colleges, and the agricultural sector. Expanding opportunities in fields such as the digital economy, freelancing, and remote work will improve the integration of young people into the labor market.*

Keywords: *youth, labor market, employment, personnel training strategy.*

Kirish.

O'zbekistonda yosh kadrlarni ish bilan ta'minlash nafaqat dolzarb, balki mamlakatimizning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligi uchun ham hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mamlakat aholisi tarkibida yoshlarning ulushi yuqori bo'lib, mehnat bozoriga kirib keluvchilar ham asosan ushbu qatlam vakillari hisoblanadi. Shu bois, yoshlarning bandligi iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, barqaror rivojlanishni ta'minlash hamda aholi daromadlarini ko'paytirish uchun asosiy omillardan biridir. Biroq, bu yo'lda bir qator muammolar mavjud bo'lib, ularni tizimli hal qilish zaruriyati tug'uladi.

Yoshlar sonining ko'payishi natijasida har yili mehnat bozoriga yangi ishchi kuchi oqimi kirib keladi. 2023-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatda 686 mingdan ortiq maktab, professional ta'lim va oliy ta'lim bitiruvchilari mehnat bozoriga qo'shiladi. Agar yoshlar uchun yetarli ish o'rinlari yaratilmasa, ishsizlik va kambag'allik ortib ketishi mumkin. Ayniqsa, qishloq hududlarida demografik o'sish va ish o'rinlarining cheklanganligi iqtisodiy tengsizlik va qashshoqlik muammolarini kuchaytirishi ehtimoli yuqori.

Mehnat bozorida asosiy muammolardan biri yoshlarning malakasi va mehnat bozorining ehtiyojlari o'rtasidagi nomutanosiblikdir. Ish beruvchilar tomonidan yuqori malaka va zamonaviy texnologiyalarni bilish talab qilinayotgan bir paytda, ko'plab yoshlarning kasbiy tayyorgarligi ushbu talablarni qondira olmaydi. Natijada yoshlar o'z malakasiga mos ish topishda qiyinchilikka duch kelmoqda. Bundan tashqari, kasb va hunarlarni qadrlashdagi o'zgarishlar ham muhimdir – ba'zi kasblar nufuzi tushib ketayotgan bo'lsa, ayrim yuqori malaka talab qiluvchi ixtisosliklarga ehtiyoj oshmoqda (Bekmurodov, 2020).

Adabiyotlar sharhi.

Raqamli texnologiyalar ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda hal qiluvchi omil bo'lib, yoshlarni zamonaviy mehnat bozoriga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi (Bates, 2019). Texnologik yutuqlar va raqamli ta'lim imkoniyatlari orqali mehnat bozoriga kirishdagi tenglik masalalari, yoshlarning raqamli savodxonligini oshirish bandlik imkoniyatlarini kengaytirish borasidagi takliflar (Selwyn, 2016) berilgan. Raqamli ta'lim va kadrlar tayyorlash strategiyalari yoshlarning mehnat bozoriga moslashuvini tezlashtirishda muhim rol o'ynaydi (Kayumova, 2023). Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi va frilanserlik orqali yoshlarning bandligini oshirish masalalari ko'rib chiqiladi (Raximov, 2023). Kasb-hunar ta'lim tizimida raqamli platformalar orqali yangi ko'nikmalarni egallash va ularni mehnat bozoriga tatbiq etish masalalarini yoritadi (Saidova, 2021). Yosh kadrlarning raqamli savodxonligini oshirish

bandlik imkoniyatlarini kengaytirish vositasi sifatida baholanadi (Tursunov, 2020). Yoshlarning bandligini oshirishda raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi (Qodirova, 2022).

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot ishini bajarishda kuzatish, ma'lumotlarni yig'ish, umumlashtirish, taqqoslash, mahalliy va xorijiy olimlarning yoshlarni ish bilan ta'minlash borasidagi qarashlari, sohadagi muammolar va ularning yechimlari bo'yicha izlanishlari hamda sohaga doir qonuniy va me'yoriy-huquqiy hujjatlar o'rganilib, xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Yoshlarning mehnatga jalb etilishida ijtimoiy-iqtisodiy muammolar ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Global axborot maydonining kengayishi va turmush darajasi andozalarining tez o'zgarishi yoshlarning kutilayotgan hayot sifatiga nisbatan talabini oshiradi. Biroq, ularning bu talablarga erishish imkoniyatlari cheklangan bo'lib, bu esa ijtimoiy norozilikka sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, yoshlarda kelajakda mehnat faoliyatida muvaffaqiyat qozonish uchun zarur bo'lgan qobiliyatlar va ko'nikmalarning yetarlicha shakllanmaganligi ham muammo hisoblanadi.

Kadrlar tayyorlash tizimi ishlab chiqarishning ehtiyojlariga mos ravishda rivojlantirilishi zarur. Oliy va kasb-hunar ta'limi tizimlari o'quv dasturlarini zamonaviy talablar bilan uyg'unlashtirishda sust ishlayotgani kuzatilmogda. Kadrlar tayyorlashda amaliyotning yetarli darajada bo'lmasligi ham yoshlarni ish bozoriga kirib kelishiga to'sqinlik qiladi. Shuningdek, davlat va nodavlat sektorlari o'rtasidagi hamkorlikning yetishmasligi malakali kadrlar yetkazib berishni sekinlashtirmogda. Jumladan:

- *Bo'sh ish o'rinlariga joylashtirish:* Yoshlar uchun mavjud bo'lgan bo'sh ish o'rinlariga joylashtirish – muhim yo'nalishlardan biridir. 2023-yilda 1,432,000 nafar bitiruvchini bo'sh ish o'rinlariga joylashtirish rejalashtirilgan. Ushbu jarayon korxonalar, davlat tashkilotlari va xususiy sektorda bo'sh o'rinlar bilan hamkorlikda olib boorish (Karimov, 2021).

- *Kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish:* Kasbiy ta'lim va tadbirkorlikka o'rgatish orqali 534,000 nafar yoshga yangi imkoniyatlar berish. Bu yo'nalish ta'lim muassasalari, nodavlat tashkilotlar va malaka oshirish markazlari hamkorligida amalga oshirish (Rashidov, 2018).

- *Ustoz-shogird tizimi:* Ustoz-shogird" tizimida faoliyat yuritish. 108,000 nafar yoshni "Ustoz-shogird" tizimi asosida hunarmandlarga birlashtirish orqali ularning amaliy ko'nikmalarini oshirish nazarda tutilgan (Yusupov, 2021).

- *Qishloq xo'jaligidan yer ajratish orqali bandlikni oshirish:* 279 ming nafar yoshga yer maydonlari ajratilib, ularning qishloq xo'jaligida bandligi ta'minlanadi.

- *Haq to'lanadigan jamoat ishlariga jalb qilish:* 151 ming nafar yoshni jamoat ishlariga jalb qilish rejalashtirilgan. Bu orqali ular vaqtinchalik ish bilan ta'minlanib, moliyaviy yordam olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

- *Ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish:* Yoshlar infratuzilma loyihalarida ishtirok etishi orqali o'z mehnat ko'nikmalarini oshiradi va yangi imkoniyatlarga ega bo'ladi.

Shuningdek, qishloq xo'jaligi va boshqa ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish orqali yoshlarning bandligini ta'minlashga qaratilgan dasturlar ham samarali natija bermoqda. Bu dasturlar qishloq yoshlari uchun yangi ish o'rinlari yaratishga, yer ajratish orqali ularning qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanishiga yordam bermoqda. Shu bilan birga, qishloq hududlarida tashkil etilgan kooperativlar ham yoshlarning barqaror bandligini ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda.

Davlat va nodavlat tashkilotlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali kasb-hunar va tadbirkorlikka yo'naltirilgan o'quv dasturlarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Ushbu dasturlar yoshlarni nafaqat kasbiy bilim bilan ta'minlaydi, balki ularda tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga ham yordam beradi.

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish orqali yoshlarning bandligini oshirish ham dolzarb masalalardan biridir. Masofadan ishlash imkoniyatlari va frilanserlik orqali yoshlar turli sohalarda faoliyat yuritishi mumkin. Bu esa global mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lish imkoniyatini taqdim etadi va ularning moliyaviy mustaqilligini oshirishga yordam beradi.

Yoshlarni ish bilan ta'minlash jarayonida bir qator muammolar mavjud bo'lib, ular quyidagicha tasniflanadi:

1. *Malakaga mos ish topishdagi qiyinchiliklar:* Ta'lim tizimi va mehnat bozorining ehtiyojlari o'rtasidagi nomutanosiblik tufayli ko'plab yoshlar o'z malakasiga mos ish topishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim dasturlarini ko'paytirish bu masalada ijobiy natija berishi mumkin (Tursunov, 2019).

2. *Ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi nomutanosiblik:* O'quv dasturlari ko'pincha bozor talablariga mos kelmaydi, bu esa yoshlarning ishga joylashish imkoniyatlarini cheklaydi

3. *Ish beruvchilar va o'quv muassasalari o'rtasidagi hamkorlikning yetishmasligi:* (Mamatov, 2020) Korxonalar bilan yaqin hamkorlik qilish, ta'lim muassasalarining talabalarga amaliy mashg'ulotlarni taklif qilishi lozim.

4. *Yoshlarning mehnat bozoriga moslashuvi uchun imkoniyatlar yetishmasligi:* Yoshlar mehnat bozoriga kirib kelganda zaruriy ko'nikmalarga ega bo'lmasligi muammosi mavjud. Buni hal qilish uchun mehnatga moslashuv dasturlarini kengaytirish zarur.

5. *Iqtisodiy imkoniyatlarning teng taqsimlanmasligi:* Qishloq va shahar yoshlari o'rtasida imkoniyatlar noteng bo'lib, bu iqtisodiy tengsizlikka olib keladi (Saidov, 2022).

Maqola mazmunidan kelib chiqqan holda, yoshlar bandligini oshirishda asosiy omillarni ifodalovchi quyidagi analitik formulaga ega bo'ldik:

$$E=0.4 \times X_1 + 0.3 \times X_2 + 0.1 \times X_3 + 0.1 \times X_4 + 0.1 \times X_5$$

Bu yerda:

- E - yoshlarning bandlik darajasi.
- X₁ - davlat va xususiy sektorda ish bilan ta'minlangan bitiruvchilar soni.
- X₂ - kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitilgan yoshlar soni.
- X₃ - jamoat ishlariga jalb qilingan yoshlar soni.
- X₄ - yer ajratilgan yoshlar soni.
- X₅ - ustoz-shogird tizimida ishtirok etgan yoshlar soni.

2023-yil uchun bu formula yordamida hisoblangan bandlik darajasi:

$$E=0.4 \times 1300 + 0.3 \times 534 + 0.1 \times 151 + 0.1 \times 279 + 0.1 \times 108 = 734 \text{ ming}$$

Bu natija yoshlarni ish bilan ta'minlash chora-tadbirlarining samaradorligini ko'rsatadi.


Yuqoridagi ma'lumotlar asosida so'nggi 5 yildagi yoshlarni ish bilan ta'minlash bo'yicha statistikani jadvalda keltiradigan bo'lsak quyidagilarga ega bo'ldik:

1-jadval

Yoshlarni ish bilan ta'minlash bo'yicha statistika

Yil	Bitiruvchilar soni (ming)	Ish bilan ta'minlangan yoshlar (ming)	Kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitilgan yoshlar (ming)	Jamoat ishlariga jalb qilingan yoshlar (ming)	Yer ajratilgan yoshlar (ming)
2019	1350	1100	500	140	250
2020	1380	1150	520	145	260
2021	1410	1200	530	148	265
2022	1430	1250	534	150	270
2023	1432	1300	534	151	279

Jadval asosida yoshlarni ish bilan ta'minlash bo'yicha o'sish tendensiyasini ko'rsatadigan chiziqli regressiya modeli tuzdik. Quyidagi grafikda haqiqatdagi ma'lumotlar va regressiya chizig'i tasvirlashga harakat qildik:



1-rasm. Yoshlarni ish bilan ta'minlash bo'yicha statistikasi

Yoshlarning iqtisodiy faoliyatini oshirish uchun olib borilgan tadqiqotlar va hisob kitoblar natijasida quyidagi tavsiyalar berishimiz mumkin:

- Ta'lim tizimini modernizatsiya qilish: (Akbarov, 2022)
- Nodavlat sektorni jalb qilish: Yoshlarni kasb-hunar va tadbirkorlikka yo'naltirishda nodavlat sektor ishtirokini oshirish zarur.
- Subsidiyalar va moliyaviy qo'llab-quvvatlash: (Karimov, 2021)
- Amaliy ta'lim va ishlab chiqarish bilan bog'liqlikni kuchaytirish: Ta'lim muassasalari va ishlab chiqarish sektori o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, amaliy mashg'ulotlarni ko'paytirish lozim.
- Hududiy rivojlanish dasturlarini kengaytirish: Qishloq va shahar yoshlari o'rtasidagi iqtisodiy imkoniyatlar tengligini ta'minlash uchun hududiy dasturlarni kengaytirish zarur.

Xulosa va takliflar.

O'zbekistonda yoshlarning bandligini oshirish uchun amalga oshirilayotgan dasturlar keng qamrovli bo'lib, ularning iqtisodiy faoliyatini oshirishga qaratilgan. Ta'lim tizimi va mehnat bozori o'rtasidagi muvofiqlikni kuchaytirish, nodavlat sektorni jalb qilish va yoshlarni raqamli iqtisodiyot imkoniyatlaridan foydalanishga yo'naltirish orqali bu muammolarni hal qilish mumkin. Bundan tashqari, hududiy rivojlanish dasturlari orqali qishloq va shahar yoshlari o'rtasidagi iqtisodiy tengsizlikni kamaytirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

1. Ta'lim tizimini mehnat bozori ehtiyojlariga moslashtirish. Oliy va professional ta'limi muassasalari bozor talablariga mos mutaxassislar tayyorlashga yo'naltirilishi zarur. Raqamli ko'nikmalar va innovatsion texnologiyalar bilan bog'liq kurslar sonini oshirish yoshlarning malakasini oshirishda muhim omil bo'ladi.

2. Nodavlat sektor va korxonalar bilan hamkorlikni kuchaytirish. Korxonalar bilan yaqin hamkorlik orqali talabalarga amaliyot darslarini obyektida amaliyot o'tkazish va ustoz-shogird tizimlarini rivojlantirish zarur. Bu yoshlar malakasini oshirish bilan birga, ularni mehnat bozoriga moslashuvini osonlashtiradi.

3. Frilanserlik va masofadan ishlash uchun maxsus platformalar va trening dasturlari joriy qilinishi lozim. Bu yoshlarning global mehnat bozoriga chiqish imkoniyatlarini kengaytiradi va moliyaviy mustaqilligini oshiradi.

4. Qishloq xo'jaligi va ijtimoiy infratuzilma loyihalariga yoshlarni jalb qilish uchun yer ajratish va kooperativlar tashkil etish

5. Innovatsion biznes g'oyalar bilan shug'ullanuvchi yoshlar uchun moliyaviy yordam ko'rsatish ularning iqtisodiy faolligini oshirish

Adabiyotlar/Ўмепамыпа/Reference:

Akbarov U. (2022). *Ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi integratsiya masalalari*. Toshkent: Ta'lim rivoji nashriyoti.

Bates A. W. (2019). *Teaching in a Digital Age*. Vancouver: Tony Bates Associates.

Bekmurodov A. (2020). *O'zbekistonda yoshlar bandligini ta'minlashning strategik yo'nalishlari*. Toshkent: Fan nashriyoti.

Karimov S. (2021). *Yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishning huquqiy asoslari*. Toshkent: Adolat nashriyoti.

Kayumova, M. Sh. (2023). *Raqamli ta'limda kadrlarni tayyorlash strategiyalari*. Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.

Mamatov I. (2020). *Yoshlarni ish bilan ta'minlashda davlat dasturlarining roli*. Toshkent: Davlat nashriyoti.

Qodirova, F. (2022). *Raqamli ko'nikmalar va yoshlarning bandligi*. Toshkent: Innovatsiya nashriyoti.

Rashidov N. (2018). *Qishloq hududlarida bandlik va mehnat bozorini rivojlantirish*. Toshkent: Qishloq xo'jaligi nashriyoti.

Raximov R. R. (2023). *Yoshlarni raqamli iqtisodiyotga integratsiya qilish*. Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.

Saidov D. (2022). *Hududiy rivojlanish va iqtisodiy imkoniyatlar tengligi*. Toshkent: Rivojlanish nashriyoti.

Saidova N. (2021). *Kasb-hunar ta'limida raqamli platformalardan foydalanish*. Toshkent: Ta'lim rivoji nashriyoti.

Selwyn N. (2016). *Education and Technology: Key Issues and Debates*. London: Bloomsbury Academic.

Tursunov K. (2019). *Mehnat bozori va kadrlar tayyorlashning zamonaviy talablari*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.

Tursunov A. (2020). *Yosh kadrlar tayyorlashda raqamli savodxonlikning o'rni*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.

Yusupov B. (2021). *Ustoz-shogird tizimining rivojlanishi va uning iqtisodiy samaradorligi*. Toshkent: Iqtisodiy tahlil nashriyoti.